IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA O'RGATISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Axmedova Madinabonu G'ulomjon qizi
Qo'qon Davlat Universiteti Pedagogika tarixi va nazariyasi mutaxassisligi magistranti
axmedovamadina215@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatish jarayonining didaktik asoslari har tomonlama yoritilgan. Kasbga yo'naltirish ta'limining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyillari, metod va shakllari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasb tanlashga tayyorlashning samarali pedagogik shart-sharoitlari asoslab beriladi. Maqolada maktab, o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati ochib berilib, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy yo'naltirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, didaktik asoslar, umumta'lim maktabi, pedagogik jarayon, kasbiy kompetensiya,

Аннотация. В данной научной статье всесторонне рассматриваются дидактические основы обучения учащихся общеобразовательных школ осознанному выбору профессии. Анализируются содержание, цели и задачи профессиональной ориентации, её принципы, методы и формы. Обоснованы эффективные педагогические условия подготовки учащихся к выбору профессии с учётом их возрастных, индивидуальных и психологических особенностей. Особое внимание уделяется роли школы, учителя и взаимодействию с родителями в процессе профессиональной ориентации.

Ключевые слова: выбор профессии, профессиональная ориентация, дидактические основы, общеобразовательная школа, педагогический процесс, профессиональная компетентность.

Abstract. This scientific article comprehensively examines the didactic foundations of teaching career choice to students in general secondary schools. The content, goals, objectives, principles, methods, and forms of career guidance education are analyzed from a theoretical and pedagogical perspective. Effective pedagogical conditions for preparing students for career choice are substantiated, taking into account their age, individual, and psychological characteristics. Particular attention is paid to the role of the school, teachers, and cooperation with parents in the career guidance process**.**

Keywords: career choice, career guidance, didactic foundations, general secondary school, pedagogical process, professional competence**.**

Globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida jamiyatning barcha sohalarida malakali, raqobatbardosh, ongli kasb egalariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu sababli ta'lim tizimi oldiga yosh avlodni nafaqat bilimli, balki kelajak hayotiga puxta tayyorlangan, o'z kasbini ongli tanlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarning kasbiy o'zini o'zi aniqlashida asosiy bo'g'in hisoblanadi. Aynan maktab davrida o'quvchilarda kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlar

shakllanadi, qiziqish va layoqatlar namoyon bo‘ladi. Shu bois kasb tanlashga o‘rgatish jarayonini didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi**.**

Chunki inson hayoti davomida kasb tanlash jarayoni eng muhim rollardan biri sanaladi va har bir inson o’z qiziqishi va qobiliyatiga munosib ravishda kasb tanlashi lozim. Va bu to’g’risida pedagogik olim A.Zunnunov “Kasb tanlash shaxsning hayotiy yo‘lini belgilovchi muhim ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va jamiyat ehtiyojlari uyg‘unligida amalga oshirilishi lozim.” – deb ta’kidlab o’tadi Zunnunov ta’kidlaganidek, agar o‘quvchi faqat qiziqish asosida kasb tanlasa-yu, uning individual imkoniyatlari yoki jamiyatda ushbu kasbga bo‘lgan talab e’tibordan chetda qolsa, kelajakda kasbiy qoniqmaslik va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Aksincha, qobiliyat va mehnat bozori ehtiyojlari hisobga olinib, o‘quvchining ichki motivatsiyasi e’tiborsiz qoldirilsa, kasbiy faoliyat majburiy tus olib, ijodkorlik va tashabbuskorlik pasayadi.

Shu bois, A. Zunnunovning yondashuvi kasb tanlashga yo‘naltirish ta’limida integrativ va muvozanatli didaktik yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv umumta’lim maktablarida kasbga yo‘naltirish ishlarini tizimli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqish va layoqatlarini aniqlash, shuningdek, jamiyat va hudud mehnat bozorining real ehtiyojlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi. Zunnunov qarashlari kasb tanlashga o‘rgatishda o‘qituvchining rolini ham aniqlab beradi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor qaror bermaydi, balki uni mustaqil fikrlashga, o‘z imkoniyatlarini baholashga va ongli tanlov qilishga yo‘naltiradi. Bu esa o‘quvchida mas’uliyat, o‘z-o‘zini anglash va kelajak kasbiy rejasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Lekin o‘quvchi kasb tanlashda nafaqat maktab ta’siri, balki ota-onaning qarashlari, ijtimoiy muhit va hududiy mehnat bozori omillaridan ham ta’sirlanadi. Shu sababli kasbga yo‘naltirish ishlari ko‘p tomonlama hamkorlik asosida olib borilishi lozim. F.Abdurahmonov bu yuzasidan “Umumta’lim maktablarida kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli va uzluksiz tashkil etilgandagina o‘quvchilarda ongli kasb tanlash ko‘nikmalari shakllanadi.”- kabi fikrni ilgari surgan. Abdurahmonov kasbga yo‘naltirish jarayonining markazida o‘quvchi shaxsi turishini ta’kidlaydi. Olimning fikridan kelib chiqib kurishimiz mumkinki, o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi, psixologik holati va hayotiy rejalari e’tibordan chetda qolgan holda tashkil etilgan kasbga yo‘naltirish ishlari kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli kasb tanlashga o‘rgatishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvni asosiy metodologik tamoyil sifatida ilgari surilishi lozim. Shuning uchun ko’plab ilmiy konsepsiyalarda kasbga yo‘naltirishning uzluksizlik va bosqichlilik tamoyillari alohida o‘rin egallaydi. Boshlang‘ich sinflarda mehnatsevarlik va kasblarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, o‘rta bo‘g‘inda kasblar haqidagi bilimlarni kengaytirish, yuqori sinflarda esa aniq kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashga yo‘naltirish lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning yoshga oid rivojlanish qonuniyatlariga to‘liq mos keladi.

Kasbga yo‘naltirish jarayonida pedagogik diagnostikaning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Va bu borada, testlar, so‘rovnomalar, kuzatish va suhbatlar orqali o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash kasb tanlash jarayonining ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi. Bu holat kasbga yo‘naltirishni tasodifiy emas, balki ma’lumotlarga tayangan holda boshqariladigan pedagogik jarayonga aylantiradi.

Ko’plab qarashlarda o’qituvchi kasb tanlsh jarayonida asosiy yo’lboshlovchi va tashkilotchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchini tayyor qarorga olib kelmasligi, balki uni o‘z imkoniyatlarini anglashga, kasblar dunyosini tahlil qilishga va mustaqil tanlov qilishga yo‘naltirishi lozim. Bu jihat ushbu yondashuvini zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi bilan uyg‘unlashtiradi.

Ushbu fikrlarga tayangan holda, kasb tanlashga yo‘naltirish — bu o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, psixologik xususiyatlari hamda jamiyat va mehnat bozori

ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayonligini ko’rishimiz mumkin

Kasbga yo‘naltirish ta’limining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• o‘quvchilarda kasblar haqidagi ilmiy asoslangan bilimlarni shakllantirish;
• shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish;
• mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni tarbiyalash;
• o‘quvchilarda mustaqil va ongli kasb tanlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
• kelajak kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikni ta’minlash.

Kasb tanlashga yo‘naltirish ta’limi umumiy didaktik tamoyillar asosida tashkil etiladi. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

Ilmiylik tamoyili – o‘quvchilarga kasblar haqida ishonchli, zamonaviy va ilmiy asoslangan ma’lumotlar berilishi.

Onglilik va faollik tamoyili – o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikr yuritishi va qaror qabul qilishi.

Izchillik va uzluksizlik tamoyili – kasbga yo‘naltirish ishlarining boshlang‘ich sinflardan boshlab yuqori sinflargacha bosqichma-bosqich olib borilishi.

Individual yondashuv tamoyili – har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish.

Albatta kasb tanlash jarayoni har bir shaxs hayotida asosiy va muhim rol o’ynaydi. Chunki, kasb tanlash shaxsning faqat kelajakdagi ish faoliyatini belgilab bermaydi, balki uning hayotiy pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyat darajasini ham shakllantiradi. Sh.Sharipov “Kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish bilan birga, ularning kelajak hayotiy rejalarini belgilashga yordam beradi.”- deb ta’kidlaydi. Shu sababli Sharipov kasbga yo‘naltirishni tarbiyaviy jarayon bilan uzviy bog‘liq pedagogik hodisa sifatida baholaydi. Sh. Sharipov kasb tanlashga o‘rgatishda mehnat tarbiyasining yetakchi rolini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quvchida mehnatsevarlik, intizom, tashabbuskorlik va mas’uliyat kabi sifatlar shakllanmas ekan, kasb tanlash jarayoni yuzaki va barqaror bo‘lmaydi. Bu yondashuv Sharipov konsepsiyasining axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalganligini ko‘rsatadi.

Olimning ta’kidlashicha, kasbga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarga kasblar haqida axborot berishning o‘zi yetarli emas. Muhimi, o‘quvchi o‘zini real mehnat faoliyati subyekti sifatida tasavvur qila olishi kerak. Shu bois Sharipov amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy foydali mehnat, ishlab chiqarish bilan bog‘liq faoliyat turlarini kasbga yo‘naltirishning muhim vositalari sifatida ko‘rsatadi. Bu jihat uning qarashlarini nazariya va amaliyot birligi tamoyiliga yaqinlashtiradi.

Sh. Sharipov kasb tanlashda ijtimoiy mas’uliyat tushunchasiga alohida urg‘u beradi. Uning fikricha, o‘quvchi kasb tanlar ekan, nafaqat o‘z manfaatlarini, balki jamiyat ehtiyojlarini ham hisobga olishga o‘rganishi lozim. Bu qarash Sharipov konsepsiyasini Zunnunov ilgari surgan “jamiyat ehtiyojlari” omili bilan uzviy bog‘laydi va uni axloqiy jihatdan boyitadi. Sharipov yondashuvida o‘qituvchi o‘quvchining kasbiy qarashlarini shakllantiruvchi tarbiyachi-yo‘naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarga mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushuntiradi, kasb tanlashga mas’uliyat bilan yondashishga undaydi va shaxsiy namuna orqali tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa kasbga yo‘naltirish jarayonining pedagogik ta’sirchanligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatish ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim jarayondir. Ushbu jarayon ilmiy asoslangan didaktik tamoyillar, samarali metodlar va tizimli yondashuv asosida tashkil etilgandagina kutilgan natijaga erishiladi. Kasbga yo‘naltirish ta’limi o‘quvchilarning shaxsiy rivoji, jamiyat ehtiyojlari va mehnat bozori talablari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Abdurahmonov F. Kasbga yo‘naltirish pedagogikasi. – Toshkent, 2019.
3. Karimova M. Ta’limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. – Toshkent, 2021.
4. Sharipov Sh. Kasbga yo‘naltirish va mehnat tarbiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Islomov B. Umumta’lim maktablarida kasb tanlashga yo‘naltirish tizimi. – Toshkent, 2020.
6. Tursunova L. O‘quvchilarda kasbiy orientatsiya va shaxs rivoji. – Samarqand, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
8. Rahmatov D. Psixologik-pedagogik asoslar: Kasb tanlash va shaxsiy rivojlanish. – Toshkent, 2018.